

**TALABALARDA KOLOBORATIV TA`LIM MUHITINI  
RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O`RNI**

*Nizomiy nomidagi O`zMPU*

*Pedagogika-psixologiya va inklyuziv ta`lim fakulteti*

*Pedagogika yo`nalishi 2-kurs talabasi*

***To`xtaboyeva Madina***

[\*tukhtabevam@gmail.com\*](mailto:tukhtabevam@gmail.com)

***Annotatsiya:*** Ushbu maqola talabalarda kolaborativ ta`lim muhitini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalarning ahamiyatini tahlil qiladi. Avvalo, kolaborativ ta`lim tushunchasi va uning ta`lim jarayonida o`rni ko`rib chiqiladi. Keyin raqamli texnologiyalar — onlayn platformalar, ijtimoiy tarmoqlar, hamkorlikka yo`naltirilgan ilovalar —ning kolaborativ ta`limdagi imkoniyatlari muhokama qilinadi. Raqamli vositalar talabalarga muloqot, fikr almashish, muammolarni birgalikda hal qilish imkonini yaratadi. Ilmiy tadqiqotlar natijalari shuni ko`rsatadiki, raqamli vositalar kolaborativ o`qish muhitida talabalarning qatnashuvi va muloqotini oshirishga xizmat qiladi. Maqola oxirida ta`lim muassasalari va o`qituvchilarga talabalarda kolaborativ ta`lim muhitini samarali tashkil etish uchun raqamli vositalarni planlashtirish va talabalarning raqamli kompetensiyalarini oshirish bo`yicha tavsiyalar beriladi.

***Kalit so`zlar:*** kolaborativ ta`lim, raqamli ta`lim texnologiyalari, guruhli ishlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, konstruktivizm, ta`lim sifatini baholash, raqamli ta`lim, innovatsion yondashuvlar, interaktiv o`quv materiallari, guruhli faoliyatlar, loyiha asosidagi o`qitish, ta`lim sifatini oshirish.

***Annotation:*** This article analyzes the role, essence, and mechanisms of influence of digital technologies in developing a collaborative learning environment among students. It examines ways to enhance the effectiveness of group activities in the classroom through digital tools, as well as to encourage interaction and

*knowledge exchange. In addition, the article explores the theory of collaborative learning, students' participation in the educational process, practical aspects of teamwork on digital platforms, and the integration of educational technologies. The study highlights how digital technologies contribute to the development of students' self-learning, creative approaches, and digital literacy skills, demonstrating their role in shaping modern educational competencies.*

**Keywords:** *collaborative learning, digital learning technologies, group work, information and communication technologies, constructivism, assessment of education quality, improving education quality, digital education, innovative approaches, interactive learning materials, group activities, project-based learning*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются роль, сущность и механизмы влияния цифровых технологий в развитии коллаборативной образовательной среды у студентов. Рассматриваются пути повышения эффективности групповой деятельности в аудитории с использованием цифровых инструментов, а также способы стимулирования взаимного общения и обмена знаниями. Кроме того, исследуются теория коллаборативного обучения, участие студентов в образовательном процессе, практические аспекты групповой работы на цифровых платформах и интеграция образовательных технологий. В статье показано, какую роль цифровые технологии играют в формировании у студентов навыков саморазвития, креативного мышления и использования информационных технологий, а также в развитии современных образовательных компетенций.*

**Ключевые слова:** *коллаборативное обучение, цифровые образовательные технологии, групповая работа, информационно-коммуникационные технологии, конструктивизм, оценка качества образования, повышение качества образования, цифровое обучение, инновационные подходы, интерактивные учебные материалы, групповые активности, проектное обучение*

Zamonaviy ta'lim jarayonida guruhli va hamkorlikka asoslangan faoliyat metodlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu mavzu yuzasidan prezidentimizning quyidagi gaplarini misol qilib aytishimiz mumkin. "Axborot texnologiyalarini puxta o'zlashtirgan va kreativ fikrlaydigan yangi avlodni tarbiyalash ustuvor vazifamizdir. Sun'iy intellektni ta'lim tizimiga keng joriy etish maqsadida yurtimizda" Prezidentning ushbu fikrida aynan bugungi ta'lim jarayonining eng muhim yo'nalishi aniq ko'rinadi. Axborot texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, mustaqil va kreativ fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalash — bu kelajakni tayyorlash degani. Meningcha, sun'iy intellektni ta'limga joriy etish nafaqat dars jarayonini yengillashtiradi, balki talabalarga o'qishni butunlay yangi usulda tashkil qilish imkonini beradi. Ayniqsa, kolaborativ ta'lim muhitida bu texnologiyalar talabalar o'rtasida hamkorlikni kuchaytiradi, birgalikda yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'qituvchi bilan talaba o'rtasidagi muloqotni yanada samarali qiladi. Shuning uchun ham raqamli texnologiyalarni chuqur o'zlashtirish bugungi talaba uchun zaruratga aylanib bormoqda, deb o'ylayman. Ayniqsa, talabalarning o'zaro muloqoti va birgalikda bilim shakllantirish jarayonini ta'minlovchi kolaborativ ta'lim muhitining rivojlanishi bugungi kunda ta'limning sifatini oshirish masalalarida ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning keng kirib kelishi ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlarni boshlab berdi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar, onlayn hamkorlik vositalari va interaktiv ilovalar talabalarning faol ishtirokini rag'batlantirish, guruh ichidagi fikr almashinuvini kuchaytirish va muammolarni birgalikda hal qilish imkoniyatlarini kengaytiradi (masalan, OECD hisobotida ta'kidlanishicha, texnologiya yuzaki qo'llanganda emas, balki pedagogik jihatdan uyg'unlashtirilganda ma'lumot olish va motivatsiya oshadi). Shunday qilib, raqamli texnologiyalar nafaqat alohida o'qitish vositasi, balki kolaborativ muhitni tashkil etuvchi strategik resursga aylanmoqda. Ta'lim jarayonida kolaborativ muhitni yaratish va rivojlantirish masalasi esa o'z ichiga nazariy va amaliy jihatlarni oladi. Masalan, kolaborativ ta'lim nazariy jihatdan Lev Vygotsky[3] va boshqa pedagogik

olimlar tomonidan ijtimoiy muloqot va birgalikda bilim qurish tamoyillariga tayangan holda o'rganilgan. Shu tarzda, talabalarning o'quv jarayonidagi faolligi, guruh ichidagi -o'zaro aloqalar va bilim almashuvi aynan bunday ijtimoiy kontekstlarda muvofiqlashadi. Raqamli texnologiyalar bu jarayonga yangi shakl va vositalar olib kiradi: masofaviy muhitda ham hamkorlikni tashkil etish, real vaqtda fikr almashish, virtual guruh ishlarini amalga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Shunday ekan, talabalarda kolaborativ ta'lim muhitini raqamli texnologiyalar yordamida rivojlantirish bugungi ta'lim muassasalari uchun muhim strategik vazifa bo'lgan. Bu jarayonda bir tomondan o'qituvchi pedagogik jihatdan yangicha yondashuvlarni qo'llashi, boshqa tomondan ta'lim muhitida raqamli vositalarning integratsiyasi, shuningdek, talabalarning raqamli kompetensiyasi va guruh ichidagi o'zaro aloqalari uchun sharoit yaratish lozim. Shu maqsadda, ushbu maqola raqamli texnologiyalarning kolaborativ ta'lim muhitini shakllantirishdagi o'rnini, mexanizmlarini va amaliy imkoniyatlarini tahlil qiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi mualliflaridan biri bo'lgan R.Slavinning ta'kidlashicha, o'quvchilarga topshiriqlarni hamkorlikda bajarish uchun ko'rsatma berilishi yetarli emas. O'quvchilar tom ma'nodagi hamkorlik, har bir o'quvchining qo'lga kiritgan muvafaqqiyatidan quvonish, bir-biriga sidqidildan yordam berish hissi, qulay ijtimoiy-psixologik muhit vujudga kelishi zarur. Mazkur texnologiyada o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish sifatini aniqlashda ularni bir-biri bilan emas, balki har bir o'quvchining kundalik natijasi avval qo'lga kiritilgan natija bilan taqqoslanadi. Shundagina o'quvchilar o'zining dars davomida erishgan natijasi komandaga foyda keltirishini anglagan holda mas'uliyatni his qilib, ko'proq izlanishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga intiladi. Hamkorlik pedagogikasida esa o'quvchi o'z o'quv faoliyatining sub'yekti sifatida qaraladi. Bunda o'qituvchi va o'quvchi pedagogik jarayonning sub'yektlari sifatida tenglashib, hamkorlik pedagogikasi jarayoni hosil bo'ladi. Ular o'zaro hamkor, hamdo'st, hamijodkor, hamishtirokchi, hamdard, hamboshqaruvchi bo'ladilar. Hamkorlik munosabatlari o'qituvchilar orasida, ma'muriyat bilan o'quvchilar va

o'qituvchilar tashkilotlari bilan, rahbarlar, ota-onalar, jamoatchilik orasida ham o'rnatiladi.[4]

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari pedagogik jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchi shaxsiga yo'naltirishga asoslangan. Bu texnologiyalar ijodkor shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ijodiy muhitni yaratish, lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi Hamkorlikda o'qitish mashg'ulotlarining asosiy jarayonlari: hamkorlikda fikr almashish, suhbat, tahlil, munozara, muzokara, amaliy vazifalar bajarish,, biror narsani ko'rish, yasash, masalalar yechish va boshqalarni o'z ichiga oladi. "Hamkorlikda o'qitish-bu o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar guruhi, yakka o'quvchi hamda butun sinf bilan o'zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o'quvchilarning ham o'zaro qo'llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir. O'quvchilar hamkorlikda akademik topshiriqlar ustida, kichik guruhlarda ishlashadi va o'zlariga hamda o'z guruhlaridagi o'rtoqlariga birgalikda yordam berishadi." [2]

Umuman, hamkorlikda o'qitish metodlari quyidagi beshta xususiyatga ega:

1. O'quvchilar birgalikda, umumiy topshiriq yoki o'qitilayotgan faoliyat ustida ishlashadi, bu guruhiy ish orqali yaxshi o'zlashtiriladi.
2. O'quvchilar 2-5 a'zodan iborat tarkibda kichik guruhlarda birgalikda ishlashadi.
3. O'quvchilar umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyatini amalga oshirish uchun guruh tomonidan ishlab chiqilgan hamda ijtimoiy qabul qilingan xulq-atvor mezonlariga rioya qilishadi.
4. O'quvchilar ijobiy va mustaqil bo'lishadi. Umumiy vazifalarning yechimini topishga erishish yoki o'rganish faoliyati bo'yicha ishlarni tashkil etish, o'quvchilarning bir-birlariga ko'maklashishlari talab etilishini qisobga olgan holla tuzilgan bo'ladi.
5. O'quvchilar o'z ishlari iatijasiga yoki boshqacha aytganda, o'qishga, ta'lim olishga, shaxsan mas'uliyatli va javobgardirlar.

Hamkorlikda o'qitish samaradorligini ta'minlovchi omillar o'quvchilarning dars mazmuniga ijodiy yondashuvi, dars jarayonidagi axborotlarni tahlil va tanqid qilish, o'z xulosalarini asoslash, bilimlarni yangi vaziyatlarda ijodiy qo'llash, amaliy topshiriqlar bajarish uchun vaqtni ko'proq ajratish, hamkorlikda o'qiyotgan o'quvchilarning bir-biriga muvaffaqiyatga erishishlari uchun ko'maklashuvi va boshqalar. Pedagogika- psixologiya fanida hamkorlikning 8 ta shakli mavjud. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Faoliyatga kirish.
2. Mustaqil harakatlar o'qituvchi bilan o'quvchi hamkorlikda bajaradilar.
3. O'qituvchi harakatni boshlab beradi va unga o'quvchini jalb etadi.
4. Taqlid harakatlari (o'qituvchidan ibrat olgan o'quvchi ana shu namuna asosida harakat qiladi).
5. Madada harakatlari (o'qituvchi o'quvchiga oraliq maqsadni va unga erish usullarini tanlashda yordam beradi va oxirgi natijani nazorat qiladi).
6. O'zini-o'zi boshqarish harakatlari (o'qituvchi umumiy maqsadni ko'rsatishda oxirgi natijani baholashda ishtirok etadi).
7. O'zini-o'zi ko'rsatuvchi harakatlar.
8. O'zini-o'zi uyushtiruvchi harakatlar.

Hamkorlikdagi o'quv faoliyatining maqsadi o'zlashtiriladigan faoliyat va birgalikdagi harakatlar, munosabat va muloqotning boshqarish mexanizmini yaratishdir. Hamkorlikdagi faoliyatning mahsuli o'quvchilar ilgari surgan yangi g'oyalar va o'zlashtirilayotgan faoliyatning mohiyatiga bog'liq maqsadlar va sheriklikdagi shaxs pozitsiyasini boshqarish istaklarining yuzaga kelishidir. Hamkorlikdagi faoliyat usuli deganda, o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi hatti-harakatlarining tizimini tushunish kerak. Bunday hatti-harakat o'qituvchining o'quvchiga ko'rsatadigan yordamidan boshlanadi, o'quvchilarning faolligi asta-sekin o'sib borib, butunlay ularning o'zi boshqaradigan amaliy va aqliy harakatiga aylanadi, o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi munosabata esa sheriklik pozitsiyasi xususiyatiga ega bo'ladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari amalga oladigan ayrim noana'naviy dars shakllari :

Matbuot konferensiyasi darsi o'zlashtirish mashqi. Dars mavzusini savol javoblar orqali

Quvnoqlar, zukkolar klubi darsi qiziqarli savol-ularga javoblar topish orqali mustaqil fikrlashni o'rgatish mashqi.

Guruhlarda ishlash darsi o'quvchilarning bir nechta guruhlarga bo'linib vazifalar bajarishini tashkil etish orqali bilimlarni mustahkamlash mashqi.

O'zaro o'qitish darsi o'quvchilarning dars mazmuni bo'yicha matnning ayrim abzaslari yoki shunga o'xshash kichiq bo'laklarini bir-birlariga tushuntirishlarini tashkil etish orqali mavzuni o'zlashtirish darsi.

O'quvchilar olib boradigan dars dars mavzusini o'quvchilar tomonidan tushuntirib berilishini tashkil etish orqali o'quvchilar faolligini oshirish mashqi.

Tanlov darsi sinfdagi o'quvchilarning bir yoki bir nechta mavzu bo'yicha oldindan tayyorgarlik ko'rgan holdagi tanlovini tashkil etish, g'oliblarni aniqlash darsi.

Juftlikda ishlash (binar) dars o'quvchilarning juft bo'lib, dars mavzusini birgalikda o'zlashtirishi yoki bir-birining bilimlarini mustahkamlash darsi. Bunda zarur bo'lganda juftliklar dars davomida turlicha o'zgartirilishi mumkin.

Dialog darsi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va o'z fikrlarini bayon etish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida dars mavzusini o'quvchilar bilan dialoglar tashkil etish orqali tushuntirish va mustahkamlash mashqlaridan iborat.

Aylana bo'ylab mashq darsi o'quvchilarning navbatma-navbat ishtiroki asosida yangi mavzuni o'zlashtirish yoki o'tilgan darsni takrorlab, mustahkamlash mashqlaridan iborat. Innovatsiyalar darsi o'quv fani sohasidagi yoki maktab hayotiga tegishli yangiliklarni joriy qilish, shuningdek o'quvchilarning ijodiy faoliyatlari natijalarini amalda qo'llash bo'yicha taqlif va loyihalar bilan tanishirish darsi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini

rivojlantirishga xizmat qiladi. Hamkorlikda o'qitishning asosiy g'oyasi: o'quv topshiriqlarini nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qish o'rganishdir. Hamkorlikda o'qitish o'quvchida quyidagilarni shakllantirishni ko'zda tutadi:[5]

- Har bir o'quvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish;
- Shaxs sifatida onglilik, mustaqillikni tarbiyalash;
- Har bir o'quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish;
- O'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash;
- Tahsil olishda mas'uliyat hissini shakllantirish.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir o'quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o'quv topshiriqlar to'liq va siti bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga, o'rtoqlariga hamkor bo'lib, o'zaro yordam uyushtirishga zamin tayyorlaydi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasida o'quvchilarni hamkorlikda o'qitishni tashkil etishning bir necha metodlari mavjud:

1. Komandada o'qitish(R.Slavin).
- 2.Kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish(R.Slavin, 1986).
- 3.Hamkorlikda o'qitishning “zigzag yoki arra” metodi (E.Aronson, 1978).
- 4.Hamkorlikda o'qitishning “Birgalikda o'qiyamiz” metodi (Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson, 1987).
- 5.Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodi (Isroildagi Tel-Aviv universiteti professori Sh.Sharan 1988 tomonidan ishlab chiqilgan).

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning YUNESKO Bosh konferensiyasi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. Gov.uz sayti
2. Дилова Н.Ф. (2017). Ўқувчи шахсини ривожлантиришда ҳамкорлик педагогикасининг ўрни. Замонавий таълим. 1-сон



3. Rasulova Z.D. (2020). Pedagogical peculiarities of developing socio-perceptive competence in learners. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*.
4. Kakhkhorov S.K., Rasulova Z.D. (2020). Methodology of improving the professional activity of the future teacher of technology on the basis of modern educational technologies. *Universal J. of Educational Research*.
5. Расулова З.Д., Содикова А.Х. (2020). Возможности использования компьютерных технологий в технологическом образовании. *Вестник науки и образования*. 19 (97), часть 2,
6. Дилова Н.Г. (2013). Требования к учителю по организации сотрудничества учащихся начальных классов в учебном процессе. *Актуальные проблемы современной науки*. № 4 (72).

